

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy va O‘rta Maxsus Ta’lim Vazirligi
Andijon mashinasozlik instituti
“Mashinasozlik texnologiyasi” fakulteti
“Texnologik mashinalar va jihozlar” kafedrası

“ _____ ”

Ekologiya _____ fanidan

MUSTAQIL ISH

Mavzu: Ekologiya va qonun

Bajardi: _____ KT _____ yo‘nalishi

Kurs _____ 3 _____ gurux _____ 026-13

Talabasi : _____ Badalov X

Tekshirdi: _____ Xolmatov M

Andijon - 2016 yil

Ekologiya va qonun

Reja:

- 1. Ekologik qonun hujjatlarni buzganlik uchun javobgarlik tushunchasi, mohiyati va turlari.**
- 2. Ekologik qonun hujjatlarni buzganlik uchun intizomiy va moddiy javobgarlik.**
- 3. Ekologik huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik.**

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishni ta'minlash choralari tizimida qonun hujjatlariga rioya qilmaganlik, ekologik talablarni buzganlik uchun yuridik javobgarlik choralari muhim o`rinni egallaydi.

Ekologiyaga doir qonunchilikni buzganlik uchun yuridik javobgarlik o`zining asosiy maqsadi va tamoyillari bilan boshqa qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlikdan farq qilmaydi, ammo ma'lum bir o`ziga xos xususiyatlarga ham ega. Ushbu xususiyatlar o`simlik va hayvonot dunyosiga yetkazilgan zararni taksa uslubi asosida undirish va ekologik qonun hujjatlarini buzganlik uchun maxsus jazo choralari, ya'ni tabiiy resurslardan foydalanish huquqini cheklash, to`xtatib turish va undan mahrum qilish choralari qo`llashdan iboratdir.

Ekologik qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik quyidagi maqsadlarga ega: tabiiy obyektlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish qoidalarini buzgan shaxslarga nisbatan jazo choralari qo`llash; atrof tabiiy muhitga va inson salomatligiga yetkazilgan zararni qoplash; yangi ekologik huquqbuzarlikni sodir etishni ogohlantirish.

Ekologik javobgarlik bo`yicha ijtimoiy munosabatlar ekologik huquqbuzarlik sodir etilganda vujudga keladi. Ekologik huquqbuzarlik deganda tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish to`g`risidagi qonun hujjatlarini buzuvchi aybli, noqonuniy harakat yoki harakatsizlik tushuniladi. Ekologik huquqbuzarlik sodir etilganda atrof tabiiy muhitga hamda u orqali inson salomatligiga zarar yetkaziladi yoki zarar yetkazish xavfi tug`iladi. Ammo, ma'lum bir holatlarda zarar ekologik huquqbuzarlikni belgilashda hisobga olinmasligi mumkin, chunki tabiiy resurslardan foydalanish huquqini buzish oqibatida ekologik munosabatlarning boshqa bir subyektlarini huquq va manfaatlari buzilishi mumkin. Masalan, hech kim tomonidan foydalanilmayotgan yer maydonini o`zboshimchilik bilan egallab olishda davlatning yerga bo`lgan mulk huquqi buziladi.

Ekologik huquqbuzarliklar obykti tabiiy resurslar, atrof tabiiy muhit, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza etish bo'yicha belgilangan tartibi hisoblanadi. Ekologik huquqbuzarliklarning subyekti esa uni sodir etuvchi yuridik va jismoniy shaxslar hisoblanadilar.

Ekologik huquqbuzarlikning obyektiv tomoni xatti harakatning noqonuniyligi, ekologik zararni yetkazish yoki yetkazish xavfi tug'ilishi hamda ekologik munosabatlarning boshqa subyektlarini huquq va manfaatlari buzilishi, ushbu xatti harakat bilan vujudga kelgan yoki vujudga kelishi mumkin bo'lgan oqibat o'rtasidagi sababiy bog'lanish bilan ifodalanadi.

Ekologik huquqbuzarlikning subyektiv tomoni deganda huquqbuzarning aybi tushunilishi lozim. Huquqbuzarning aybi qastdan yoki ehtiyotsizlik shaklida vujudga kelishi mumkin. Ekologik huquqbuzarlik qastdan sodir etilayotganida huquqbuzar taqiqlangan qoidani yoki bajarishi lozim bo'lgan majburiyatni atayin buzadi yohud bajarmaydi va bunda u o'z xatti harakatlari natijasida zararli oqibatlarni kelib chiqishini biladi hamda ongli ravishda unga yo'l qo'yadi. Masalan, yerlarni o'zboshimchalik bilan egallab olish, ruxsatsiz ov qilish yoki daraxtlarni kesish va boshqalar.

Ehtiyotsizlik oqibatida huquqbuzarlik sodir etilganda, huquqbuzar o'z xatti harakating natijasida salbiy oqibatlarni kelib chiqishini bila turib, ular vujudga kelmaydi deb hisoblaydi yoki zararli oqibatlar kelib chiqishi mumkinligini oldindan ko'rishi lozim va mumkin bo'lgani holda, uni oldindan ko'ra bilmaydi. Masalan, chiqindilarni tozalovchi nosoz uskunalarni ishlatish, kimyoviy moddalarni me'yordan ortiq ishlatish va boshqalar.

Ekologik huquqbuzarlik o'zining xavflilik darajasiga qarab jinoiy, ma'muriy, fuqarolik (mulkiy) huquqbuzarlik hamda intizomiy xatti harakat tarzida bo'lishi mumkin. Ekologik huquqbuzarliklar uchun tegishlicha intizomiy, moddiy, ma'muriy, jinoiy, fuqarolik huquqiy (mulkiy) javobgarlik qo'llaniladi. Bundan tashqari ekologik huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarning tabiiy resurslardan foydalanish huquqi cheklanishi, to'xtatib turilishi va undan mahrum etilishi mumkin.

2. Ekologik qonun hujjatlarni buzganlik uchun intizomiy va moddiy javobgarlik.

Ekologik qonun hujjatlarni buzganlik uchun intizomiy javobgarlik korxonalar, tashkilot va muassasalar bilan mehnat munosabatlarida bo`lgan shaxslarga nisbatan qo`llaniladi. Ekologik huquqbuzarlik uchun intizomiy choralar qo`llash uchun xodimlarga tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza etish vazifalari yuklatilgan bo`lishi lozim. Ushbu vazifalar mehnat shartnomalarida yoki mehnat majburiyatlarni taqsimlovchi boshqa hujjatlarda, masalan, mansab yo`riqnomasida o`z aksini topishi lozim. Xodim atrof tabiiy muhitga zararli moddalar chiqarish hisobini noto`g`ri yuritganligi, tozalash uskunalaridan foydalanish qoidalarini buzganligi va boshqa mehnat vazifalari bilan bog`liq bo`lgan ekologik majburiyatlarni bajarmaganligi uchun intizomiy javobgarlikka tortiladi.

O`zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini 181-moddasiga muvofiq mehnat intizomini buzganlik uchun quyidagi jazo choralari qo`llaniladi: xayfsan; o`rtacha oylik ish haqining o`ttiz foizidan ortiq bo`lmagan miqdorida jarima; ichki mehnat tartibi qoidalarida nazarda tutilgan hollarda xodimga o`rtacha oylik ish haqining ellik foizidan ortiq bo`lmagan miqdorida jarima solish; mehnat shartnomasini bekor qilish. Mazkur Kodeksda nazarda tutilmagan intizomiy jazo choralari qo`llashi taqiqlanadi. Mehnat kodeksining 180-moddasi to`rtinchi qismiga muvofiq intizomiy jazo amal qilib turgan muddat mobaynida xodimga nisbatan rag`batlantirish choralari qo`llanilmaslik belgilangan. Bu muddat, O`zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini 183-moddasiga muvofiq, agar ushbu jazo bir yil o`tmadan oldin ish beruvchi tomonidan olib tashlanmagan bo`lmasa, bir yildan oshib ketishi mumkin emas.

Intizomiy jazo choralari korxonalar, tashkilot, muassasa rahbari yoki ustavda belgilangan boshqa shaxs yoki organ (mulkdor, kollegial organ) tomonidan qo`llaniladi (Mehnat kodeksining 82, 182-moddalari). Intizomiy jazo chorasini qo`llash tartibi quyidagilardan iborat: jazo qo`llanilishidan avval xodimdan yozma ravishda tushuntirish xati olinadi; nojo`ya xatti-harakatining og`irligi, qaysi

vaziyatda sodir etilganligi, xodimning oldingi ish faoliyati va xulq-atvori inobatga oliniladi; har bir nojo`ya xatti-harakat uchun faqat bitta intizomiy jazo qo`llanilishi mumkin; agar O`zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida boshqa muddat ko`rsatilgan bo`lmasa, nojo`ya xatti-harakat aniqlangandan keyin bir oy ichida ushbu jazo qo`llanilishi mumkin.

Intizomiy jazo chorasi berilganligi to`g`risidagi buyruq yoki qaror xodimga yozma ravishda ma`lum qilinadi va u tanishganligi to`g`risida uning nusxasiga imzo qo`yadi. Intizomiy jazo chorasi berilganligi to`g`risidagi qaror ustidan O`zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini 184-moddasida belgilangan tartibda shikoyat qilishi mumkin.

Atrof tabiiy muhitga ekologik talablar buzilishi oqibatida yetkazilgan zarar aybdor shaxsdan undiriladi. Agar zarar yetkazuvchi yuridik shaxs bo`lsa, u zararni qoplash majburiyati bilan birga, ushbu zarar yetkazilishiga bevosita aybdor xodimni moddiy javobgarlikka tortish huquqiga ega bo`ladi.

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar atrof tabiiy muhitga zarar yetkazilishida aybdor bo`lgan xodimning moddiy javobgarligining fuqarolik qonun hujjatlarida belgilangan mulkiy javobgarlikdan farqlash lozim. Moddiy javobgarlik mulkiy javobgarlikdan undiriladigan zararining miqdorini belgilash va zararining faqat xodimning mehnat munosabatlari natijasida vujudga kelishi bilan farq qilinadi.

Xodimlarning moddiy javobgarlikka tortish tartibi va shartlari mehnat qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Moddiy javobgarlikning vujudga kelishi uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjud bo`lishi kerak: xodimning noqonuniy xatti-harakati, ya'ni o`z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi oqibatida korxonalar, tashkilotlar, muassasalarga haqiqiy zarar yetkazilgan bo`lishi zarur; xodimning harakat yoki harakatsizligi aybli bo`lishi lozim, xodimning harakat yoki harakatsizligi bilan kelib chiqqan oqibatlar o`rtasida sababiy bog`lanish bo`lishi lozim.

Aksariyat hollarda moddiy javobgarlikning miqdori qonun bilan chegaralangan, masalan, Mehnat kodeksining 201-moddasiga muvofiq, agar mazkur Kodeksda boshqacha holat nazarda tutilgan bo`lmasa, xodim yetkazilgan

zarar uchun o`zining o`rtacha oylik ish haqi miqdori doirasida moddiy javobgar bo`ladi. Agar xodim ekologik talablarni buzib qasddan zarar yetkazgan bo`lsa yoki alkogolli ichimlik, giyohvandlik yoki toksik modda ta'siridan mastlik holatida zarar yetkazganda, hamda qonunlarda, shuningdek hukumatning qarorlarida nazarda tutilgan hollarda, yetkazilgan zarar uchun xodim to`liq moddiy javobgarlikka tortiladi (Mehnat kodeksining 202-moddasi).

Ish beruvchi xodimlardan yetkazilgan zararni undirish to`g`risida qarorni qabul qilishidan oldin uning miqdorini va zararni, kelib chiqish sabablarini aniqlashi lozim. Bu maqsadlarda komissiya tuzilishi hamda xodimdan tushuntirish xati olinishi lozim.

Xodim tomonidan zararning ixtiyoriy ravishda qoplashini yoki uni majburiy undirilishi tartibi O`zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksini 206 va 207-moddalarida o`z aksini topgan. Korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarining zararni undirish to`g`risidagi qarori zarar yetkazilganligi aniqlangan kundan boshlab bir oy ichida chiqarilishi lozim. Zararning miqdori xodimning o`rtacha oylik ish haqidan ortiq bo`lmasa, korxonalar, tashkilot va muassasalar rahbarining qaroriga binoan undiriladi, agar zarar miqdori xodimning o`rtacha oylik ish haqidan ortiq bo`lsa, yoki zarar aniqlangan kundan keyin bir oylik muddat o`tgan bo`lsa, zarar sud tartibida undiriladi.

Korxonalar, tashkilot va muassasalar mol-mulkiga yetkazilgan zararni undirish haqidagi qaror ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

Xodimlarning moddiy javobgarlikka tortilishidan qat'iy nazar ularga nisbatan intizomiy jazo choralari qo`llanilishi mumkin.

3. Ekologik huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik.

Ekologik huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik eng ko`p qo`llaniladigan javobgarlik turidir. Ma'muriy javobgarlikka tortishga ma'muriy huquqbuzarlik asos bo`ladi. qonun hujjatlarida ma'muriy javobgarlikka tortish nazarda tutilgan tabiiy muhitga tajovuz qiluvchi g`ayri huquqiy, aybli (qasddan

yoki ehtiyotsizlik oqibatida) sodir etilgan harakat yoki harakatsizlik ma'muriy huquqbuzarlik deyiladi.

Ekologik huquqbuzarliklar uchun ma'muriy javobgarlik O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksida nazarda tutilgan. Ma'muriy javobgarlik choralari ushbu huquqbuzarlik uchun jinoiy javobgarlikka tortish sabablari bo'lmaganida, qo'llaniladi.

Ekologik huquqbuzarliklar uchun quyidagi ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi:

- jarima. Uni qo'llashning asosiy tamoyillari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 25-moddasida belgilangan. Jarimani qo'llash oqibatida ma'muriy huquqbuzarlik sodir etishda aybdor shaxsdan davlat hisobiga pul undiriladi. Ekologik huquqbuzarliklar uchun belgilangan jarimaning miqdori O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 60, 65-96, 125, 139, 162, 174, 198, 212, 214-moddalarida belgilangan;

- ma'muriy huquqbuzarlik sodir etish quroli hisoblangan yoki bevosita shunday narsa bo'lgan ashyoni musodara qilish jazosi tuman (shaxar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi tomonidan qo'llaniladi (O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 27-moddasi). O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 90-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq ov qilish qoidalari qo'pol ravishda buzilgan taqdirda ov qilish qurollari, ushbu Kodeksning 94-moddasiga muvofiq esa noyob yoki yo'q bo'lib ketish xavfida turgan hayvonlarni yo'q qilib yuborish yoxud ushbu moddada ko'zda tutilgan boshqa huquqbuzarliklarni sodir etgan taqdirda shu huquqbuzarliklarni sodir etish quroli bo'lgan ashyolarni musodara qilish mumkin. Ma'muriy huquqbuzarlik oqibatida tabiiy obyektlar o'zlashtirib olinsa (yer egallanib olinsa, daraxt kesilsa, hayvonlar ov qilib o'ldirilsa), ular davlatga qaytarib beriladi va bu musodara hisoblanmaydi. Faqat huquqbuzarning mulki bo'lgan huquqbuzarlikni sodir etish quroli yoki ashyosi musodara qilinishi mumkin;

maxsus hquqdan mahum etish. O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksini 28 moddasi va 90-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, ov qilish qoidalarini qo`pol ravishda buzgan hollarda ov qilish huquqidan o`n besh kundan uch yil muddatgacha mahrum etilishi mumkin;

ma'muriy qamoqqa olish uch sutkadan o`n besh sutkagacha muddatga qo`llaniladi. Ma'muriy qamoqqa olish chorasini xomilador ayollarga, uch yoshgacha bolasi bo`lgan ayollarga, o`n to`rt yoshgacha bo`lgan bolasini yakka o`zi tarbiyalayotgan shaxslarga, o`n sakkiz yoshga to`lmagan shaxslarga, I va II-guruh nogironlariga nisbatan qo`llanilishi mumkin emas (O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 29-moddasi). Ekologik huquqbuzarlik uchun ma'muriy qamoqqa olish O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksini 60-moddasida nazarda tutilgan.

Ma'muriy javobgarlik choralarini qo`llashda organ yoki mansabdor shaxs javobgarlikni yengillashtiruvchi holatlarni va huquqbuzarning moddiy ahvolini inobatga olgan holda, sababini, albatta, ko`rsatib turib, ma'muriy javobgarlikdan ozod etishi (O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksini 20-moddasi) yoki mazkur kodeksning maxsus qismi moddalarining jazo belgilash qismida nazarda tutilgan eng kam jazodan ham yengilroq jazo chorasini qo`llashi mumkin.

Yerlarning huquqiy holatini buzganlik uchun O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksini 60, 65-69 moddalarida javobgarlik belgilangan. Mazkur kodeks quyidagi huquqbuzarliklarni nazarda tutadi: yerdan o`zboshimchalik bilan foydalanish; yer bilan bog`liq bo`lgan g`ayriqonuniy bitimlar tuzish; yer uchastkasiga bo`lgan huquqlarni boshqa shaxsga o`tkazish; yer uchastkalarini o`zboshimchalik bilan egallash; yerlardan xo`jasizlarcha foydalanish yoki ularni yaroqsiz holga keltirish; yerlarni kimyoviy va radioaktiv moddalar hamda oqova suvlar bilan ifloslantirish; yer berish tartibini buzish; vaqtincha egallab turgan yerlarni o`z vaqtida qaytarib bermaslik yoki ularni yaroqli holga keltirmaslik; yer tuzish loyihalaridan o`zboshimchalik bilan chetga

chiqish; davlat yer kadastri qoidalarini buzish; yerdan foydalanish to`g`risidagi hisobotlarni buzib ko`rsatish; axborotlarni berishdan bo`yin tovlash yoki noto`g`ri axborot berish va boshqalar.

O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksini 60, 70, 71-moddalarida yer osti boyliklarini muhofaza qilish va ulardan oqilona foydalanish talablarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Xususan, yer osti boyliklaridan o`zboshimchalik bilan foydalanish; yer osti boyliklariga nisbatan mulk huquqini buzish va ulardan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga berish; foydali qazilmalar joylashgan maydonlarga o`zboshimchalik bilan imorat qurish; yer osti boyliklaridan foydalanish talab va tartiblarini buzish; yer osti boyliklarini muhofaza qilish qoidalariga rioya etmaslik; geologik jihatdan o`rganish ishlarini olib borish qoidalarini buzish va boshqalar.

Suvlarni muhofaza qilish va ulardan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik O`zbekiston Respublikasining ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksini 60, 72-76-moddalarida belgilangan. Ushbu Kodeks quyidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarliklarni belgilaydi: suvdan o`zboshimchalik bilan foydalanish; davlatning suvga bo`lgan mulk huquqini buzish; suvdan foydalanish huquqini boshqa shaxslarga berish; suvlarni ifloslantirish va bulg`atish; korxonalar va boshqa obyektlarni suvlarning ifloslanishi va bulg`anishi yoki ularni zararli ta'sirini oldini oluvchi inshootlar va qurilmalarsiz foydalanishga topshirish; yer osti suvlaridan foydalanish inshootlari va uskunalaridan foydalanish qoidalarini buzish; suvdan foydalanish me'yorlari va limitlariga rioya etmaslik; gidrotexnika ishlarini o`zboshimchalik bilan boshqarish va ulardan foydalanish qoidalarini buzish; suvdan foydalanishni dastlabki hisobini yuritish va oqova suvlarning sifatini aniqlash qoidalarini, shuningdek suv kadastri yuritish tartibini buzish va boshqalar.

O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksini 60, 77-81 va 84-moddalarda o`rmonlarning huquqiy holatini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Mazkur masala bo`yicha Kodeks quyidagi huquqbuzarliklarni nazarda tutadi: o`rmonlardan o`zboshimchalik bilan

foydalanish; o`rmonlarga bo`lgan mulk huquqini buzish; o`rmondan foydalanish huquqini boshqa shaxsga berish; kesiladigan o`rmon fondidan foydalanish tartibini buzish; daraxtlar va boshqa o`rmon o`simliklarini shikastlantirish yoki yo`q qilish; o`rmonlarni tiklash qoidalariga rioya etmaslik; qizil kitobga kiritilgan o`simliklarni yig`ish; o`rmonlarda yong`in xavfsizligi talablarini buzish va boshqalar.

O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 60, 90, 92, 93 va 94-moddalarida hayvonot dunyosining huquqiy holatini belgilovchi qoidalarni buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Mazkur Kodeks shu borada quyidagi huquqbuzarliklarni nazarda tutadi: ov qilish yoki baliq tutish qoidalarini, shuningdek hayvonot dunyosidan foydalanishning boshqa turlarini amalga oshirish qoidalarini buzish; hayvonlar yashaydigan muhitni muhofaza qilish qoidalarini buzish; Qizil kitobga kiritilgan hayvonlar va o`simliklar turlarini saqlashga zarar keltiradigan hayvonlar yoki o`simliklarni qonunga xilof ravishda O`zbekistonga olib kelish va boshqalar.

O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 85-88-moddalarida atmosfera havosini muhofaza etish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Bular: ifloslantiruvchi moddalarni va biologik organizmlarni yo`l qo`yiladigan normalardan ortiq darajada atmosferaga chiqarib tashlash; atmosfera havosiga yo`l qo`yiladigan normativdan ortiq darajada zararli fizikaviy ta'sir ko`rsatish; atmosferaga ruxsatsiz ifloslantiruvchi moddalar va biologik organizmlarni chiqarib tashlash yoki ruxsat talab qilinadigan hollarda bunday ruxsatsiz atmosfera havosiga zararli fizikaviy ta'sir ko`rsatish; zararli moddalarni yoppasiga chiqarib tashlashning oldini olish chora-tadbirlarini amalga oshirmaslik; atmosferaga chiqariladigan zararli moddalarni tozalash inshootlaridan foydalanish qoidalarini buzish, shuningdek, ulardan foydalanmaslik; chiqindilarda ifloslantiruvchi moddalar normativdan ortiq bo`lganda transport va boshqa harakatlanuvchi vositalarni tayyorlash, ta'mirlash va foydalanishga chiqarish va boshqalar.

O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 82-moddasida alohida muhofaza etiladigan tabiiy hududlar holatini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan.

Atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish qoidalariga rioya etmaganlik uchun O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksning 89, 89, 91, 95, 96-moddalarida javobgarlik ko`zda tutilgan. Bularga: o`simliklarni himoya qilish vositalari va boshqa dorilarni tashish, saqlash hamda qo`llash qoidalariga rioya qilmaslik, ishlatish taqiqlangan va ishga yaroqsiz bo`lib qolgan kimyoviy moddalarni zararsizlantirish bo`yicha qoidalarini buzish, sanoat va o`zga chiqindilarni tashish, joylashtirish, utillashtirish, ko`mib tashlash chog`ida tabiatni muhofaza qilish talablarini buzish, tabiiy muhitni tiklash, tabiiy zaxiralarni qayta hosil qilish va tabiiy muhitga zararli ta'sir ko`rsatish oqibatlarini bartaraf etish choralarini ko`rmaslik hamda loyihalarni davlat ekologik (sanitariya-ekologik) ekspertizasining ijobiy xulosasiz ruyobga chiqarish kabi huquqbuzarliklar kiradi.

O`zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to`g`risidagi kodeksda atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog`liq bo`lgan boshqa huquqbuzarliklar uchun ham javobgarlik belgilangan. Bularga quyidagilar kiradi: 174-moddada soliq olinadigan foydani (daromadni) yoki boshqa obyektlarni qasddan yashirish (kamaytirib ko`rsatish) yoxud soliqlar, yig`imlar va boshqa majburiy to`lovlar to`lashdan bo`yin tovlash uchun javobgarlik belgilangan. Agar shaxs yer solig`ini to`lashdan qasddan bo`yin tovlasa yoxud foydalanayotgan yer uchastkasi miqdorining soliq organlariga noto`g`ri ko`rsatsa yoki atrof tabiiy muhitga chiqarib tashlangan chiqindilar miqdorini kamaytirib ko`rsatsa, mazkur modda bilan javobgarlikka tortilishi. Ushbu Kodeksning 198-moddasida hokimiyat vakilining qonuniy talablarini bajarmaganlik yoki xizmat vazifasini bajarishiga to`squinlik qilish uchun javobgarlik belgilangan. Atrof tabiiy muhitni muhofaza etish va tabiiy resurslardan foydalanish ustidan davlat nazorati va boshqa vakolatli davlat organlarining qonuniy talablarini, shu jumladan huquqbuzarlik oqibatlarini bartaraf etishga

qaratilgan chora-tadbirlarini bajarmaslik yoki ularni tekshirishga to'sqinlik qilish mazkur huquqbuzarliklarning turini tashkil qiladi.

Ekologik standartlarni yoki ekologik sertifikatlashtirish qoidalarini buzganlik uchun O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 212, 214-moddalarida javobgarlik belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning uchinchi bo'limida ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqishga vakolatli bo'lgan organlar (mansabdor shaxslar) ko'rsatilgan. Tuman (shahar) sudining ma'muriy ishlar bo'yicha sudyasi ushbu Kodeksning 245-moddasiga muvofiq 60, 66, 67, 90-moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni, hamda huquqbuzarlik faktini inkor etsa, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi barcha ishlarni, ya'ni ko'rib chiqish boshqa organlar vakolatiga kiradigan ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqadi. Ekologik huquqbuzarliklar to'g'risidagi ma'muriy ishlarni maxsus vakolatga ega bo'lgan organlarning mansabdor shaxslari - inspektorlari ko'rib chiqishga haqlidirlar. Ularning ushbu ish bo'yicha vakolatlari O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 257-moddasida (davlat sanitariya organlari), 260-moddasida (Sanoatda, konchilikda va kommunal sektorda ishlarining bexatar olib borilishini nazorat qilish inspeksiya organlari), 261-moddasida (Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi organlari), 266-moddasida (Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi organlari), 266²-moddasida (Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining "O'zsuvnazorat" respublika suv inspeksiya organlari) belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning to'rtinchi va beshinchi bo'limlarida ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish va ma'muriy jazo tayinlash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish tartibi belgilangan.

4. Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni undirishning huquqiy asoslari

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik va uni ifloslantirish natijasida atrof tabiiy muhitga ekologik va iqtisodiy zarar yetkaziladi.

Iqtisodiy zarar tabiiy obyektlarning nobud bo`lishi, buzilishi, yo`q bo`lib yoki kamayib ketishi hamda tabiiy resurslardan foydalanuvchilarning xo`jalik manfaatlariga ziyon yetkazilishi bilan namoyon bo`ladi. Masalan, suvlarning ifloslanishi oqibatida suv havzasida baliqlar nobud bo`ladi, ushbu suv ichimlik va qishloq xo`jalik maqsadlarida foydalanishga yaroqsiz bo`lib qolishi oqibatida boshqa suv manbaalaridan foydalanish yoki suvlarni tozalash uchun ko`shimcha sarf xarajatlarni keltirib chiqaradi.

Ekologik zarar tabiiy sharoitning yomonlashuvi, tabiiy obyektlarning son va sifat jihatdan salbiy o`zgarishlari orqali namoyon bo`lib, insonlarning toza, sog`lom va qulay tabiiy muhitiga bo`lgan huquqlari buziladi. Masalan, atmosfera havosining ifloslanishi oqibatida odamlarning yashash sharoiti yomonlashib, ularning sog`lig`iga zarar yetkazilishi mumkin. Ekologik zarar insonlarning sog`lig`iga hamda kelajak avlodlar salomatligiga ziyon yetkazishi mumkin.

Odatda, atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar ham ekologik ham iqtisodiy ahamiyatga ega bo`lib, salbiy o`zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar oqibatlarini bartaraf etib bo`lmasligi, ya'ni ba'zi tabiiy obyektlar (tabiiy yodgorliklar, qazilma boyliklar)ni qayta tiklanmasligi, ekologik zararning oqibatlari ma'lum muddat o`tgach, vujudga kelishi (o`simlik hamda hayvonot dunyosi obyektlarining turlaridan foydalanish va muhofaza qilish qoidalarini buzish oqibatida ularning keyinchalik keskin kamayib ketishi, noyob va yo`qolib borayotgan toifalarga tushib qolishi) mumkin yoki ushbu oqibatlarni ekologik talablar buzilmagan hududlarda, shu jumladan boshqa davlatlarda vujudga kelishi kabi xususiyatlarga ega.

Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni undirishning asosiy tamoyillaridan biri bo`lib faqat noqonuniy ravishda yetkazilgan zararni undirish mumkinligi hisoblanadi. Bu qoidaning negizi tabiiy resurslardan har qanday foydalanishda atrof tabiiy muhitga ma'lum darajada salbiy ta'sir ko`rsatilishidan iborat, chunki zamonaviy sharoitda chiqindisiz, ekologik jihatdan sof toza texnologiya mavjud

emas va tabiiy resurslardan foydalanmasdan turib ishlab chiqarishni rivojlantirib bo'lmaydi. Shuning uchun iqtisod va ijtimoiy sohani rivojlantirish maqsadida insoniyat tabiiy resurslarni oqilona ravishda o'zlashtirishi lozim. Ayni vaqtda atrof tabiiy muhitga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatishning oldini olish maqsadida qonun hujjatlarida unga zararli ta'sir ko'rsatishning yo'l qo'yiladigan doiralari (chegaralari) belgilanadi. Ushbu doiralar har bir tabiiy resurs bo'yicha alohida belgiladi. Masalan, yerlarga mineral o'g'itlar, pestitsit, gerbetsidlarni qo'llash me'yorlari orqali uning tabiiy holati saqlanadi, atmosfera havosiga chiqariladigan zararli moddalar va biologik oragnizmlar uchun yo'l qo'yiladigan miqdorlari orqali havoning insonga va tabiiy muhitga zarar ko'rsatmaydigan sifati ta'minlanadi. Shundan kelib chiqqan holda, shuni aytish mumkinki, atrof tabiiy muhitga faqat noqonuniy, aybli harakat yoki harakatsizlik natijasida yetkazilgan zarar undiriladi.

Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksini 985-moddasiga, "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 49-modasiga va tabiiy obyektlar to'g'risidagi tegishli qonunlarning tegishli moddalariga muvofiq, zarar yetkazgan shaxs tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim. Ushbu qoida yetkazilgan zararni qoplashning asosiy talabini belgilaydi. Shu bilan birga, ushbu Kodeksning 2-moddasi beshinchi qismida atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish munosabatlariga nisbatan fuqarolik qonun hujjatlari ushbu munosabatlarni maxsus qonunlar bilan tartibga solinmaydigan hollarda qo'llanilishi ko'rsatilgan. Shuning uchun atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni undirishning quyidagi o'ziga xos xususiyatlari mavjud: o'simlik va hayvonot dunyosiga yetkazilgan zararni taksa uslubi asosida undirish. Bu xususiyatni belgilashdan sabab shundan iboratki, ushbu obyektlarga yetkazilgan haqiqiy zararni aniqlashning murakkabligi amaliyotdan kelib chiqqan holda, har bir hayvonot va o'simlik dunyosi turidan noqonuniy foydalanish yoki nobud qilish uchun oldindan belgilangan miqdorlar asosida yetkazilgan zarar undiriladi. Masalan, o'simlik dunyosiga yetkazilgan zararni hisoblash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1995 yil 27 iyuldagi 293-sonli qarori bilan tasdiqlangan taksalar asosida amalga oshiriladi.

Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zarar har xil ko`rinishda namoyon bo`ladi. Birinchidan, tabiiy obyektlar nobud bo`ladi, ularning holati yomonlashadi. Ikkinchidan, yuridik va jismoniy shaxslarning moddiy manfaatlariga ziyon yetkaziladi, masalan, atmosfera va suvlarning holati yomonlashishi oqibatida qishloq xo`jalik mahsulotlari nobud bo`ladi yoki hosildorlik pasayib ketadi. Uchinchidan, inson salomatligiga ziyon yetkazilib, odamlarning kasallanish hollari (dararjasi) ko`payadi.

Atrof tabiiy muhitga zarar fuqarolik-huquqiy huquqbuzarlik sodir etilishi oqibatida yetkaziladi. Atrof tabiiy muhitga zarar yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan ehtiyotsizlik yoki qasddan hamda harakat yoki hharakatsizlik natijasida sodir etiladi. Ushbu holat huquqbuzarlikning tarkibi xosil bo`lishi uchun qilingan harakat yoki harakatsizlik va kelib chiqqan oqibatlar o`rtasidagi sababiy bog`lanish mavjud bo`lishi lozim.

Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararining tarkibiga quyidagilar kiradi: haqiqiy yetkazilgan zarar, ekologik zararining oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan harajatlar, olinmagan daromadlar va boshqalar.

Haqiqiy yetkazilgan zararga nobud bo`lgan o`simlik va hayvonot dunyosi obyektlarining, qishloq xo`jalik ekinlarining qiymati kiradi. Tabiiy obyektlarni tiklash, ifloslangan suvlarni, tuproq va havoni tozalashga ketgan harajatlar hamda ekologik zarar oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan boshqa sarf-harajatlar majburiy harajatlarni tashkil etadi. Olinmagan daromadga shu tabiiy obyektning foydalanishidan kelib tushishi lozim bo`lgan, ammo uning nobud bo`lishi yoki yomonlashuvi oqibatida olinmagan yoxud olish imkoniyati yo`qolgan daromadlar kiradi, masalan, tuprog`i kimyoviy moddalar bilan ifloslangan yer maydonidan tushadigan daromad olinmagan daromad hisoblanadi.

Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni qoplash ixtiyoriy yoki majburiy bo`lishi mumkin. Uni majburiy undirish Tabiatni muhofaza qilish davlat qo`mitasi, tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza etishni tashkil qiluvchi davlat organlarining, manfaatdor yuridik va jismoniy shaxslarning da'vosiga asosan, tegishli sud yoki xo`jalik sudining qaroriga binoan amalga oshiriladi.

5. Ekologik jinoyatlar uchun javobgarlik.

O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 2-moddasiga muvofiq, mazkur Kodeksning maqsadlaridan biri bo`lib tabiiy muhitni jinoiy tajovuzlardan qo`riqlash hisoblanadi. Ushbu Kodeksning 193-204, va 229¹-moddalarida ekologik jinoyatlar uchun jinoiy javobgarliklar belgilangan.

O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 193-196-moddalarida atrof muhitni muhofaza qilish talablarini buzganlik uchun javobgarlik belgilangan. Ushbu jinoyatlar tarkiblari umumiy ekologik talablarni buzish oqibatida vujudga keladi. Ushbu jinoyatlar barcha tabiiy resurslarni muhofaza qilish bilan bog`liqdir. O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini ekologik jinoyatlar bilan bog`liq bo`lgan mazkur moddalari tabiiy resurslarning huquqiy holatini buzganlik uchun jinoiy javobgarlikni belgilaydi.

O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksida belgilangan ekologik jinoyatlar tarkibi ekologik huquqbuzarlik natijasida og`ir oqibatlarning vujudga kelishi bilan bog`liqdir. Bularga insonning o`limi, odamlarning ommaviy ravishda kasallanishi, hayvonlarning qirilib ketishi, ko`p yoki ancha miqdorda zarar yetkazilishi va boshqa og`ir oqibatlar kiradi. Mazkur moddalarda ko`rsatilgan boshqacha og`ir oqibatlar har bir alohida holda ekologik huquqbuzarlikning og`irligini inobatga olgan holda huquqni qo`llovchi organlar tomonidan belgilanishi lozim.

Ekologik jinoyatlar uchun Kodeks eng kam ish haqining yuz baravarigacha jarima, uch yilgacha axloq tuzatish ishlari, uch yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish, olti oygacha qamoq, besh yilgacha ozodlikdan mahrum etish, mol-mulkini musodar etish kabi jazo choralarini nazarda tutadi.

O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 17-moddasiga muvofiq ekologik jinoyatlar uchun 16 yoshga to`lgan, ushbu Kodeksning 193-196-moddalarida ko`rsatilgan jinoyatlar uchun esa 18 yoshga to`lgan jismoniy shaxslar jinoiy javobgarlikka tortiladilar.

O`zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksini 193-moddasida ekologiya xavfsizligiga oid norma va talablarni buzganlik uchun javobgarlik ko`zda tutilgan. Ushbu jinoyat sanoat, energetika, transport, qishloq xo`jaligi va boshqa obyektlarni loyihalashtirish, joylashtirish, qurish va ishga tushirib foydalanishda belgilangan ekologik normalarni buzishdan iborat. Mazkur ekologik talablarga obyektlarni joylashtirishda shamol oqimi, sanitar zonalarga oid talablar, zararli moddalarni chiqarib tashlashning yo`l qo`yiladigan doiralari, obyektlarni ekologik ekspertizadan o`tkazish yoki uning salbiy xulosasi bo`lgan taqdirda obyektlarning qurilishi va ishga tushirilishining man etilishi kiradi. Ushbu moddada obyektlarni ishga tushirish uchun qabul qilish qoidalarini buzganlik, ya'ni ekologik talablarga javob bermaydigan obyektlarni ishga tushirish uchun qabul qilish uchun ham javobgarlik belgilangan. Ekologik xavfsizlik qoidalari O`zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish tog`risida"gi qonunini 41-moddasida, tabiiy resurslar tog`risidagi qonunlarning tegishli moddalarida hamda qonun osti aktlarida o`z aksini topgan. Ushbu normalarning mohiyati shundan iboratki, obyektlarni qurish, loyihalashtirish, joylashtirish, ishga tushirish faqat tabiatni muhofaza qilish chora-tadbirlari ko`zda tutilgan holdagina amalga oshirilishi mumkin. har bir turdagi obyektlar uchun aniq ekologik xavfsizlik talabi qurilish me'yorlari va qoidalarida, alohida obyekt uchun esa, uning qurish loyihalarida o`z aksini topadi. Jinoyat kodeksining 193-moddasida ko`zda tutilgan jinoyatning obyektiga bo`lib ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan qoidalar kiradi. Mazkur jinoyatning subyekt bo`lib faqat mansabdor shaxslar hisoblanadi. Ularning qatoriga loyihani tasdiqlovchi, ma'lum bir ishlarga ruxsat beruvchi, yuqorida ko`rsatilgan obyektlarni qabul qilib oluvchi yoki ekologik xavfsizlik talablarining bajarilishini tashkil etuvchi yoxud nazorat qiluvchi mansabdor shaxslar kiradilar. Jinoyatning subyektiv tomoni bo`lib ehtiyotsizlik aybi hisoblanadi. Jinoyat obyektiv tomoni mazkur mansabdor shaxslarning aybli harakati (ishga tushirish bo`yicha ruxsat berish, loyiha talablarini buzib, uni amalga oshirish va hokazo) yoki harakatsizligi (tozalash uskunalarini ta'mirlamaslik, ulardan foydalanmaslik va hokazo) kabilarda ifodalanadi.

Adabiyotlar ro'yhati:

1. Abdullaev O., Toshmatov Z., Uzbekiston ekologiyasi bugun va ertaga. T. Fan, 1992 y.
2. Rafikov A.A., Geoekologik muammolar. T.Ukituvchi, 1997, 112b.
3. Otaboev Sh., Nabiev M. Inson va biosfera. T.Ukituvchi, 1995, 320 b.
4. Tuxtaev A.S. ekologiya. T.Ukituvchi, 1988, 192b.
5. Shodimetov Yu. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. T.Ukituvchi, 1994